

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

«TASDIQLAYMAN»

O'quv ishlari bo'yicha  
prorektor R.G. Jumayev

2024 y.

«KELISHILGAN»

O'quv-uslubiy department  
boshligi M.A.Tursunov

«\_\_\_» 2024 y.

«KELISHILGAN»

Fizika-matematika fakulteti  
dekan H.Q. Jo'rayev

2024 y.

5130100-Matematika ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik  
fanlaridan

Yakuniy davlat attestatsiyasi imtihon  
DASTURI

2.00. Umumkasbiy fanlar:

2.01. Matematik analiz.

2.02. Chiziqli algebra.

2.07. Matematik fizika tenglamalari.

3.00. Ixtisoslik fanlari:

3.01. Funksional analiz.

3.02. Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar nazariyasi.

Buxoro – 2024 yil

## ANNOTATSIYA

Ushbu dastur Buxoro davlat universiteti 5130100-Matematika ta'lim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalaridan ixtisoslik fanlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi imtihonini o'tkazish uchun mo'ljallangan bo'lib, dastur O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2009 yil 5 iyunda 1963-son bilan ro'yxatga olingan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2009 yil 22 maydagi 160-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida nizom"ga 2015 6-noyabrdagi 1963-1-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi to'g'risida nizomga o'zgartirishlar kiritish haqida"gi 1963-1-sonli buyrug'iga muvofiq ishlab chiqilgan.

### Tuzuvchilar:

**E.B. Dilmurodov**, Matematik analiz kafedrasi mudiri, f.-m.f.f.d (PhD).

**U.D. Durdiev**, Differential tenglamalar kafedrasi mudiri, f.-m.f.f.d (PhD).

**H.R. Rasulov**, Matematik analiz kafedrasi dotsenti, f.-m.f.n., dotsent

### Taqrizchilar:

**Z.R. Bozorov**, V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti Buxoro bo'linmasi katta ilmiy xodimi, f.-m.f.f.d (PhD).

**A.X. Avezov**, Matematik analiz kafedrasi katta o'qituvchisi

**Imtihon dasturi Buxoro davlat universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan.**

2024 yil «\_\_» \_\_\_\_ dagi \_\_ - sonli bayonnomma.

## KIRISH

- I. Umumiy qoidalar
- II. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari
- III. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi
- IV. Yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibi
- V. Yakuniy qoidalar

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va Oliy ta'limning Davlat ta'lim standartiga muvofiq oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasini o'tkazish tartibini belgilaydi.

### I. UMUMIY QOIDALAR

1. Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi bakalavriat yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq o'tkaziladi.

2. Yakuniy davlat attestatsiyasi oliy ta'lim muassasasidagi har bir ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha tashkil etiladigan yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

3. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

bitiruvchining bilim, malaka va ko'nikma darajasining davlat ta'lim standartlari talablariga muvofiq kelishini kompleks bahoresh;

yakuniy davlat attestatsiyasi natijalari bo'yicha bitiruvchilarga bakalavr (magistr) akademik darajasini berish masalasini hal qilish;

komissiya faoliyati natijalarini tahlil qilish va ular asosida oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlashni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

4. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari o'z faoliyatlarini mazkur Nizom hamda bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va ta'lim mazmuniga qo'yilgan Davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishga yo'naltirilgan boshqa hujjalarga tayangan holda olib boradilar.

### II. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSİYASI SINOVLARI

5. Yakuniy davlat attestatsiyasi quyidagi ko'rinishdagi bir yoki bir necha attestatsiya sinovlaridan iborat:

ayrim fan bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovi;

ta'lim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi;

bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi.

6. Ayrim fan bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi mazkur fanning muvofiq davlat ta'lim standartida belgilangan zaruriy mazmunidan kelib chiqqan

holda o'quv dasturida nazarda tutilgan materiallarni talaba tomonidan o'zlashtirilganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

7. Ta'lrim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovi ayrim fanlar mazmuniga qo'yildigan talablar bilan bir qatorda, talaba tayyorlarligining mazkur yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha davlat ta'lrim standartida bitiruvchiga nisbatan nazarda tutilgan umumiyl talablarga ham javob bera olish darajasini aniqlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

8. Yakuniy davlat attestatsiyasiga albatta bitiruv malakaviy ishning (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi kiritiladi. Ayrim yo'nalishlar uchun bu tartibga istisno kiritish faqat Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligi tomonidan hal etiladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari o'quv jarayoni jadvalida ko'rsatilgan muddatlarda o'tkaziladi.

9. Tayanch oliy ta'lrim muassasalari tomonidan, turdosh yo'nalishlar bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lrim muassasalari yetakchi professor-o'qituvchilarini jaib etgan holda, yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining dasturlari va bitiruv malakaviy ishni (magistrlik dissertatsiyasini) baholash tartiblari ishlab chiqiladi va tayanch oliy ta'lrim muassasasi Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi hamda tegishli oliy ta'lrim muassasalariga belgilangan tartibda yetkaziladi.

### III. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYA KOMISSIYALARINI TARKIBI

10. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari raisligiga nomzodlar oliy ta'lrim muassasalari tomonidan tegishli vazirlik va idoralar bilan kelishilib, Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligiga tasdiqlash uchun taqdim etiladi.

11. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasi raislari oliy ta'lrim muassasasining idoraviy mansubligidan qat'i nazar, ushbu ta'lrim muassasasida ishlamayotgan olimlar, ishlab chiqarishning yetakchi mutaxassislaridan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligi tomonidan bir yil (kalendor yil) muddatga tasdiqlanadi.

Bir kishi ketma-ket bir oliy ta'lrim muassasasida tegishli yo'nalish (mutaxassislik) bo'yicha ikki martadan ortiq yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining raisi bo'lishi mumkin emas.

12. Oliy ta'lrim muassasasida Oliy va o'rta maxsus ta'lrim vazirligi tomonidan tasdiqlangan raislar rahbarligida ta'lrim muassasasi rektori buyrug'i bilan ayrim fanlar bo'yicha yakuniy attestatsiya sinovlari, ta'lrim yo'nalishi (mutaxassislik) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasini o'tkazish bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi shakllantiriladi.

13. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalari tarkibi mutaxassis tayyorlovchi oliy ta'lrim muassasasining ilmiy-pedagogik kadrlari (attestatsiya komissiyasi umumiyl tarkibining 50 foizigacha), shuningdek mazkur soha kadrlarining iste'molchilari bo'lgan korxona, tashkilot va muassasalarining yuqori malakali

mutaxassislari, turdosh oliy ta'lrim muassasalarining yetakchi professor-o'qituvchi va ilmiy xodimlari, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tizimidagi tegishli soha olimlaridan iborat bo'ladi.

14. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tarkibi kamida 5 nafar professor-o'qituvchi va mutaxassislardan shakllantiriladi. Yakuniy davlat attestatsiyasida vasiylik kengashi, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari va ota-onalar vakillari jamoatchilik asosida kuzatuvchi sifatida qatnashishi mumkin.

15. Yakuniy attestatsiya sinovlari bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tarkibi oliy ta'lrim muassasasi rektori tomonidan bitiruv semestri boshlanishidan bir oy oldin tasdiqlanadi.

Zaruriyat bo'lganda attestatsiya sinovlarining biri bo'yicha bir nechta yakuniy davlat attestatsiya komissiyalari tuzilishi mumkin.

Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi vakillari ishtirot etishlari mumkin.

Oliy ta'lrim muassasalarining davlat attestatsiyasidan o'tmagan yo'nalish va mutaxassisliklari bitiruvchilarining yakuniy davlat attestatsiyasi Davlat test markazi vakillari ishtirotida o'tkaziladi.

### IV. YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH TARTIBI

16. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari boshlanishidan oldin yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raislari bilan oliy ta'lrim muassasasi rektori shaxsan yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarining tayyorlarlik darajasi, komissiya raislari va a'zolarining vazifalari, bitiruvchilarga qo'yilayotgan talablar, tartib-intizom to'g'risida seminar-kengash o'tkazadi.

17. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari yozma yoki og'zaki usulda tashkil etiladi va ushbu tartib oliy ta'lrim muassasasi Ilmiy kengashi qarori asosida ta'lrim muassasasi rektori tomonidan belgilanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi boshlanishidan olti oy ilgari talabalar e'tiboriga yetkaziladi. Talabalar dasturlar bilan ta'minlanadilar, ularga tayyorlarlik ko'rish va maslahatlar berish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

18. Ta'lrim yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha fanlararo yakuniy attestatsiya sinovlariga va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasiga tegishli ta'lrim dasturlarini to'liq tugatgan va o'quv rejasida nazarda tutilgan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan talabalar qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lrim muassasalari bitiruvchilarini tegishli ta'lrim dasturlarini to'liq o'zlashtirgandan keyin yakuniy davlat attestatsiyasidan o'tishlari majburiydir.

19. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari va bitiruv malakaviy ish (magistrlik dissertatsiyasi) himoyasi yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining ochiq majlislarida, a'zolarning kamida uchdan ikki qismi ishtirot etgan holda o'tkaziladi.

Yakuniy davlat attestatsiyasiga kiritilgan barcha turdag'i attestatsiya sinovlari bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi talabalar bilimini nazorat qilish va baholashning reyting tizimiga muvofiq aniqlanadi hamda yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining majlis bayoni belgilangan tartibda rasmiylashtirilgandan so'ng shu kunning o'zida e'lon qilinadi.

20. Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi bitiruvchilarning yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlari natijalari asosida ularga ta'lif yo'naliши (mutaxassisligi) bo'yicha bakalavr (magistr) darajasi berish haqida qaror qabul qiladi.

Yakuniy davlat attestatsiya komissiyalarining qarorlari ochiq ovoz berish yo'li bilan, majlisda ishtirok etuvchilarning ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo'lgan holda, raisning ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

21. Oliy ta'lif muassasasi bitiruvchisi yakuniy davlat attestatsiyasi tarkibiga kiritilgan attestatsiya sinovlarining barcha turlaridan muvaffaqiyatlari o'tgandan so'ng unga muvofiq daraja va oliy ma'lumot to'g'risidagi diplom beriladi.

22. O'quv dasturlarini o'zlashtirishda katta yutuqlarga erishgan va o'quv rejasidagi barcha fanlarning kamida 3/4 qismi bo'yicha 86 ball va undan yuqori o'zlashtirish ko'rsatkichlariga erishgan (boshqa fanlar bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 71 balldan kam bo'lmagan), shuningdek yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarining har biri bo'yicha kamida 86 ball o'zlashtirish ko'rsatkichlariga ega bo'lgan bakalavriat bitiruvchisiga "imtiyozli" diplom beriladi.

23. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) o'tolmagan talaba uch yil ichida yakuniy davlat attestatsiyasiga (o'tolmagan attestatsiya sinovlarining har bir turi bo'yicha bir marta) qaytadan kiritiladi.

Muddatli harbiy xizmatda bo'lish va 3 yoshga to'lmagan bola parvarishi bo'yicha ta'til ko'rsatilgan 3 yillik muddatga kirmaydi.

Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidan ikkinchi marta ham o'ta olmagan talabalar masalasi ularning arizasiga muvofiq Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi tomonidan ko'rib chiqiladi.

24. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlaridan (yoki attestatsiya sinovlari turlaridan biri bo'yicha) qayta o'ta olmagan talabaga akademik ma'lumotnomalar beriladi va u o'rnatilgan tartibda, to'lov-kontrakt asosida tegishli kursga o'qish uchun qayta tiklanishi mumkin.

25. Ayrim fan (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha yakuniy davlat attestatsiyasi sinovidagi qoniqarsiz ko'rsatkich (55 balldan kam) talabani boshqa fanlar (yoki fanlararo sinovlar) bo'yicha attestatsiya sinovlaridan o'tish huquqidagi mahrum etmaydi.

26. Uzrli sabab bilan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kelmagan talabalar rektoring buyrug'i bilan yakuniy davlat attestatsiya komissiyasining ishi

yakunlanishiga qadar boshqa muddatlarda o'tkaziladigan yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlariga kiritilishi mumkin.

27. Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovlarida olgan bahosiga e'tiroz bildirgan bitiruvchilarning arizalarini ko'rib chiqish uchun rektor buyrug'i bilan apellyatsiya komissiyasi tuziladi.

28. Yakuniy davlat attestatsiyasi jarayonida qo'yilgan bahodan norozi bo'lgan bitiruvchilar yakuniy davlat attestatsiyasi baholari e'lon qilingan kundan e'tiboran uch kun muddat ichida apellyatsiya komissiyasiga murojaat qilish huquqiga egadirlar.

29. Apellyatsiya komissiyasi o'z xulosasini bitiruvchiga bir kun muddat ichida ma'lum qilishi lozim.

30. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining ishi bo'yicha yillik hisobot oliy ta'lif muassasasi Ilmiy kengashida ko'rib chiqiladi. Mazkur Ilmiy kengashga yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyalarini raislari taklif qilinadi.

31. Yakuniy davlat attestatsiyasi komissiyasining hisoboti yakuniy attestatsiya sinovlari tugaganidan so'ng bir oy muddatda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi hamda tasarrufida oliy ta'lif muassasalari bo'lgan tegishli vazirlilik, idoralarga taqdim etiladi.

## V. YAKUNIY QOIDALAR

32. Mazkur Nizomda belgilangan qoidalar bo'yicha nizolar qonun hujjatlariga muvofiq hal qilinadi.

"O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2009 yil, 23-son, 267-modda.

**5130100-Matematika ta'limi yo'nalishi bitiruvchilari uchun ixtisoslik  
fanlaridan**

**Yakuniy davlat attestatsiyasi sinovi yozma ishlarini**

**BAHOLASH MEZONLARI**

5130100-Matematika ta'lrim yo'nalishi bitiruvchi kurs talabalari uchun ixtisoslik fanlaridan Yakuniy davlat attestatsiya sinovi yozma ish shaklida olinadi. Har bir talabaga bittadan yozma ish varianti taqdim etiladi. Har bir variant dastur asosida tuzilgan 5 ta savoldan iborat bo'lib, har bir savol 20 ballik tizimda baholanadi. Har bir talabaning 5 ta savol uchun umumiy 100 balldan to'plagan baliga qarab Yakuniy davlat attestatsiyasi xulosa chiqaradi.

Har bir savol uchun ballar taqsimoti quyidagi jadvalda keltirilgan:

| Nº | Umumiy ball | Baho                | Bakalvr talabasining bilim darajasi   | Ballar taqsimoti |
|----|-------------|---------------------|---|------------------|
| 1  | 20 ball     | A'lo (90-100 %)     | xulosa va qaror qabul qilish; ijodiy fikrlay olish; mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish. | 18-20 ball       |
| 2  |             | Yaxshi (70-89 %)    | mustaqil mushohada yurita olish; olgan bilimlarni amalda qo'llay olish; mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.   | 14-17 ball       |
| 3  |             | Qoniqarli (60-69 %) | mohiyatini tushunish; bilish, aytib berish; tasavvurga ega bo'lish.   | 12-13 ball       |
| 4  |             | Qoniqarsiz (0-59 %) | Talaba savolni mohiyatini tushunmasa, ilmiy ma'lumotlarni bayon etishda qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilsa, ma'lumotlar asosida mustaqil fikr yurita olmasa.                                     | 0-11 ball        |

**Baholashni 5 baholik shkaladan 100 ballik shkalaga o'tkazish  
JADVALI**

| 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala | 5 baholik shkala | 100 ballik shkala |
|------------------|-------------------|------------------|-------------------|------------------|-------------------|
| 5,00 — 4,96      | 100               | 4,30 — 4,26      | 86                | 3,60 — 3,56      | 72                |
| 4,95 — 4,91      | 99                | 4,25 — 4,21      | 85                | 3,55 — 3,51      | 71                |

|             |    |             |    |                    |                   |
|-------------|----|-------------|----|--------------------|-------------------|
| 4,90 — 4,86 | 98 | 4,20 — 4,16 | 84 | 3,50 — 3,46        | 70                |
| 4,85 — 4,81 | 97 | 4,15 — 4,11 | 83 | 3,45 — 3,41        | 69                |
| 4,80 — 4,76 | 96 | 4,10 — 4,06 | 82 | 3,40 — 3,36        | 68                |
| 4,75 — 4,71 | 95 | 4,05 — 4,01 | 81 | 3,35 — 3,31        | 67                |
| 4,70 — 4,66 | 94 | 4,00 — 3,96 | 80 | 3,30 — 3,26        | 66                |
| 4,65 — 4,61 | 93 | 3,95 — 3,91 | 79 | 3,25 — 3,21        | 65                |
| 4,60 — 4,56 | 92 | 3,90 — 3,86 | 78 | 3,20 — 3,16        | 64                |
| 4,55 — 4,51 | 91 | 3,85 — 3,81 | 77 | 3,15 — 3,11        | 63                |
| 4,50 — 4,46 | 90 | 3,80 — 3,76 | 76 | 3,10 — 3,06        | 62                |
| 4,45 — 4,41 | 89 | 3,75 — 3,71 | 75 | 3,05 — 3,01        | 61                |
| 4,40 — 4,36 | 88 | 3,70 — 3,66 | 74 | 3,00               | 60                |
| 4,35 — 4,31 | 87 | 3,65 — 3,61 | 73 | <b>3,0 dan kam</b> | <b>60 dan kam</b> |

**2.01. Matematik analiz fani dasturining asosiy nazariy qismi**

To'plamlar ustida amallar. Akslantirish va uning turlari. Sanoqli to'plamlar. Haqiqiy son tushunchasi. Haqiqiy sonlar to'plami va uning xossalari. Sonli to'plamlarning chegaralari. Haqiqiy sonlar ustida amallar.

Sonlar ketma-ketligi va uning limiti. Yaqinlashuvchi ketma-ketliklarning xossalari. Monoton ketma-ketliklarning limiti. Ichma-ich joylashgan segmentlar prinsipi. Qismiy ketma-ketliklar. Bolsano—Veershtrass lemmasi. Fundamental ketma-ketliklar. Koshi teoremasi.

Funksiya tushunchasi. Funksiyaning chegaralanganligi, monotonligi, juft va toqligi, davriyligi. Teskari funksiya. Murakkab funksiya. Elementar funksiyalar va ularning xossalari. Funksiya limiti ta'riflari. Limitga ega bo'lgan funksiyalarning xossalari. Funksiya limitining mavjudligi haqida teoremlar. Muhim limitlar. Cheksiz kichik va cheksiz katta funksiyalar. Funksiyalarni taqqoslash.

Funksiya uzlusizligi ta'riflari. Uzlusiz funksiyalar ustida amallar. Murakkab funksiyaning uzlusizligi. Elementar funksiyalarning uzlusizligi. Uzlusiz funksiyalarning lokal xossalari. Funksiyaning uzilishi, uzilish turlari. Uzlusiz funksiyalarning global xossalari. Monoton funksiyaning uzlusizligi va uzilishi. Teskari funksiyaning mavjudligi va uzlusizligi. Funksiyaning tekis uzlusizligi. Kantor teoremasi.

Funksiya hosisasi. Funksiya hosisasining geometrik hamda mexanik ma'nolari. Hosila hisoblash qoidalari va formulalari. Funksiyaning differensiallanuvchiligi. Funksiya differentiali. Taqribi hisoblash formulasi. Yuqori tartibli hosila va differensiallar. Differensial hisobning asosiy teoremlari. Teylor va Makloren formulalari. Ba'zi elementar funksiyalarning Teylor formulalari. Hosila yordamida funksiyani monotonlikka tekshirish. Funksiya

ekstremumi, ularni hosila yordamida topish. Funksiya grafigining qavariqligi va botiqligi. Funksiya grafigining asimptotalarini. Lopital qoidalari.

Boshlang'ich funksiya va aniqmas integral tushunchalari. Integralning sodda xossalari, integral hisoblashning sodda qoidalari. Aniqmas integrallar jadvali. Integrallash usullari. Ratsional funksiyalarni integrallash. Trigonometrik va ba'zi irratsional funksiyalarni integrallash.

Aniq integral (Riman integrali) ta'riflari. Aniq integralning mavjudligi va integrallanuvchi Funksiyalar sinfi. Integralning xossalari va uni hisoblash. Integralni taqribiy hisoblash formulalari. Aniq integralning geometriyaga, fizikaga, mexanikaga tadbiqlari

Birinchi tur xosmas integrallar va ularning yaqinlashishi. Manfiy bo'Imagan Funksiyaning xosmas integrali. Xosmas integralning absolyut yaqinlashuvchiligi. Xosmas integralning yaqinlashuvchilik alomatlari. Xosmas integralning bosh qiymati. Xosmas integrallarni hisoblash. Ikkinci tur xosmas integrallar va ularning yaqinlashuvchiligi.

**R**" fazo va uning muxim to'plamlari. **R**" fazoda ketma-ketlik va uning limiti. Ko'p o'zgaruvchili funksiya va uning limiti. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning uzluksizligi. Uzluksiz funksiyalarning xossalari. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning tekis uzluksizligi. Kantor teoremasi.

Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensiallanuvchiligi. Yo'nalish bo'yicha hosila. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensiallanuvchiligi. Murakkab funksiya hosilasi. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning differensiali. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning yuqori tartibli hosila va differensiali. O'rta qiymat xaqidagi teorema. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning Teylor formulasi. Ko'p o'zgaruvchili funksiyaning ekstremum qiyatlari. Ekstremumning zaruriy va etarli shartlari. Oshkormas funksiyalar. Oshkormas funksiyalarning mavjudligi, uzluksizligi va differensiallanuvchiligi.

Sonli qatorlar tushunchasi, uning yaqinlashishi va uzoqlashishi. Yaqinlashuvchi qatorlarning xossalari Musbat hadli qatorlar va ularning yaqinlashish alomatlari. Ixtiyoriy hadli qatorlar va ular yaqinlashishining Leybnits, Dirixle va Abel alomatlari. Absolyut yaqinlashuvchi qatorlarning xossalari. Shartli yaqinlashuvchi qatorlar. Riman teoremasi.

Funksional ketma-ketliklar va qatorlarning tekis yaqinlashishi, Koshi kriteriysi. Funksional ketma-ketlik va qatorlarning tekis yaqinlashishi alomatlari (Abel, Veershtrass, Dirixle). Funksional ketma-ketlik va qatorlarning funksional xossalari (xadlab limitga o'tish, kator yigindisining uzluksizligi, xadlab integrallash va differensiallash). Darajali qatorlarning yaqinlashish radiusi va sohasi, Koshi—Adamar formulasi, darajali qatorlarning funksional xossalari. Teylor qatori. Elementar funksiyalarni darajali qatorlarga yoyish.

Ikki karali integral. Darbu yig'indilari va ularning xossalari. Karrali integrallarning mavjudligi. Integrallanuvchi Funksiyalar sinfi. Karrali integrallarni hisoblash. Karrali integrallarni hisoblashda o'zgaruvchini almashtirish usuli. Uch karrali integral. Uch karrali integralni hisoblash. Uch karrali integrallarda o'zgaruvchlarni almashtirish. Karrali integrallarning tadbiqlari.

Birinchi tur egri chiziqli integral. Ikkinci tur egri chiziqli integral. Grin formulasi. Grin formulasining tadbiqlari. Birinchi tur sirt integrali. Ikkinci tur sirt integrali. Birinchi va ikkinchi tur sirt integrallari orasidagi bog'lanish. Stoks formulasi. Ostrogradskiy formulasi.

## FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xudayberganov G., Vorisov A. K., Mansurov X. T., Shoimqulov B. A. Matematik analizdan ma'ruzalar, I, II q. T. «Voris-nashriyot», 2010.
2. Shoimqulov B.A., Tuychiyev T.T., Djumaboyev D.X. Matematik analizzdan mustaqil ishlar. T. «O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati», 2008.
3. Фихтенгольц Г.М. Курс дифференциального и интегрального исчисления, 1, 2, 3 т. М. «ФИЗМАТЛИТ», 2001.
4. Alimov Sh.A., Ashurov R.R. Matematik analiz. 1,2,3 q., T. "Mumtoz so'z", 2018.
5. Садуллаев А., Мансуров Х. Т., Худойберганов Г., Ворисов А. К., Гуломов Р. Математик анализ курсидан мисол ва масалалар тўплами, 1, 2, 3 к. Т. «Ўқитувчи», 1995, 1995, 2000.
6. Шокирова Х. Р. Каррали ва эгри чизиқли интеграллар. Т. «Ўзбекистон», 1990.
9. Демидович Б. П. Сборник задач по математическому анализу. М. «Наука», 1997.
10. Азларов Т. А., Мансуров Х. Т. Математик анализ, 1, 2 к. Т. «Оъқитувчи», 1994, 1995.

## 2.02. Chiziqli algebra fani dasturining asosiy nazariy qismi

Matritsalar algebrasi. Matritsalar va ular ustida amallar. n-tartibli determinantlar, ularning xossalari. n-tartibli determinantlar, ularning xossalari. Determinantlarni hisoblash. Algebraik to'ldiruvchi va minorlar. Laplas teoremasi. Minorlar va algebraik to'ldiruvchilar va uning xossalari. Laplas teoremasi.

Determinant va maritsalarining qo'shimcha xossalari. Teskari matritsa. Determinantlarni hisoblash usullari va maritsalarning qo'shimcha xossalari. Xos va xosmas matritsalar. Teskarilanuvchi matritsa. Matritsa teskarini topish usullari. Teskari matritsa xossalari.

Chiziqli tenglamalar sistemasini tekshirish va Gauss usulida yechish. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Kramer va teskari matritsalar usullari.

Chiziqli tenglamalar sistemasini Kramer usuli yordamida yechish. Chiziqli tenglamalar sistemasini teskari matritsalar usulida yechish. Chiziqli fazolar. n-o'chovli vektor fazo. Chiziqli bog'liqlik. Vektor fazoning bazisi. Chiziqli bog'liqlik va chiziqli erklilik. Vektorlar sistemasining bazisi. Vektor fazo o'chami va bazisi. n-o'chamli arifmetik vektor fazo. Matritsaning rangi. Qism fazolar. Qism fazolarning yig'indisi va kesishmasi, to'g'ri yig'indisi Evklid fazolari. Ortonormal sistemalar. Ortogonallashtirish jarayoni. Ortogonal to'ldiruvchi va ortogonal proaksiya.

Koshi-Bunyakovskiy tengsizligi, uchburchak tengsizligi, Pifagor teoremasi. Matritsa rangi. Kroneker-Kapelli teoremasi. Kroneker-Kapelli teoremasi. Chiziqli bog'liqlik, chiziqli erklilik va matritsa rangi o'rtaqidagi bog'liqlik. Bir jinsli tenglamalar sistemasi. Fundamental yechim. Bir jinsli sistemalar va ularni yechish usullari. Yechimlarning fundamental sistemalari.

Kompleks sonlar va ular ustida amallar. Muavr formulasi. Kompleks sonlar, ular ustida arifmetik amallar. Kompleks sonning trigonometrik shakli. Muavr formulasi. Kompleks sondan ildiz chiqarish.

Birning ildizlari va ularning xossalari. Eyler formulalari. Chiziqli, bichiziqli va kvadratik formalar. Chiziqli, bichiziqli va kvadratik formalar. Bazis o'zgarganda bichiziqli forma matritsasining o'zgarishi.

Kvadratik forma. Kvadratik forma ta'rif, kvadratik formaning matritsasi. Kvadratik formani kanonik ko'rinishga keltirish usullari. Inersiya qonuni. Musbat aniqlangan kvadratik formalar. Inersiya qonuni.

Kompleks Evklid fazolari. Kompleks Evklid fazolari. Kompleks fazodagi kvadratik formalar va ularning kanonik shakllari.

Chiziqli almashtirishlar. Chiziqli almashtirishlar va ularning matritsalar. Chiziqli almashtirishlar ustida amallar va ularning xosalari. Chiziqli almashtirishning obrazi va qiyamatlar sohasi. Chiziqli almashtirish yadrosi.

Teskari almashtirish. Turli bazislarda chiziqli almashtirishlar matritsalar orasidagi bog'lanish. Teskari almashtirish.

Invariant qism fazolari. Invariant qism fazolari. Xos son va xos vektorlar

Qo'shma almashtirish. Berilgan almashtirishga qo'shma almashtirish. O'z-o'ziga qo'shma almashtirishlar va ularning kanonik shakli. Unitar almashtirishlar. Unitar almashtirishlar, ularning xos sonlari va kanonik ko'rinishi. O'zaro o'rinn al mashinuvchi almashtirishlar. O'zaro o'rinn al mashinuvchi almashtirishlar. Normal almashtirishlar va ularning kanonik ko'rinishi.

Ko'p hadli matritsalar. Ko'p hadli matritsakar. Ekvivalent  $\lambda$ -matritsalar.  $\lambda$ -matritsaning normal diagonal shakli.  $\lambda$ -matritsaning invariant

ko'paytuvchilari. Jordan matritsalar. Jordan matritsasi. Jordan katagi. Ixtiyorli matritsani Jordan matritsasiga keltirish.

### FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ayupov A.Sh., Omirov B.A., Xudoyberdiev A.X., Haydarov F.H. Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent, «Tafakkur bo'stoni», 296 bet, 2019 y.
2. И.В.Проскуряков. Сборник задач по линейной алгебре. М.: Наука, 2005.
3. Xoijev J.X., Faynleyb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi. Toshkent, «O'zbekiston», 2001 y.
4. Д.К.Фадеев. Лекции по алгебре. М.: Наука, 1984.
5. Kurosh A.G. Oliy algebra kursi. Toshkent, "O'qituvchi 1976"
6. Iskandarov R.I. Oliy algebra. 1- qism. Toshkent 1960
7. Iskandarov R.I. Oliy algebra. 2- qism. O'rta va oliy maktab. Toshkent 1963
8. Кострикин А. И. Введение в алгебру. М. 1977 у.

### 2.07. Matematik fizika tenglamalari fani dasturining asosiy nazariy qismi

Xususiy hosilali differential tenglamalar va ularning yechimi haqida tushuncha. Matematik fizikaning asosiy tenglamalari va ularni keltirib chiqarish. Ikkinchitartibli xususiy hosilali kvazichiziqli differential tenglamalarning sinflari va ularni kanonik ko'rinishga keltirish. Xarakteristik forma tushunchasi. Yuqori tartibli differential tenglamalarning va sistemalarning sinflari. Ikki o'zgaruvchili ikkinchi tartibli xususiy hosilali differential tenglamalarni kanonik ko'rinishga keltirish. Ikkinchitartibli chiziqli differential tenglamalar uchun asosiy chegaraviy masalalarning qo'yilishi. Korrekt (to'g'ri) va nokorrekt qo'yilgan masala tushunchasi. Koshi-Kovalevskaya teoremasi. Adamar misoli.

Giperbolik tipdagi tenglamaga olib kelinadigan oddiy masalalar. To'lqin tarqalish usuli. Dalamber formulasi. Bir jinsli bo'lmagan tenglama uchun Dalamber formulasi. Yechimning turg'unligi. Yarim Chegaralangan o'q va davom ettirish usuli. Chegaralangan kesma uchun masala. Tebranishning integral tenglamasi. O'zgaruvchilarini ajratish usuli. Torning erkin tebranish tenglamasi. Yechimning fizik ma'nosi. Bir jinsli bo'lmagan tenglama uchun o'zgaruvchilarini ajratish usuli. Umumiy birinchi chegaraviy masala. Boshlang'ich shartsiz masala. O'zgaruvchilarini ajratish usulining umumiy sxemasi. Xarakteristikalarda berilgan masala. Giperbolik turdag'i umumiy chiziqli tenglamalarni yechish. Qo'shma differential operatorlar. Yechimning integral ko'rinishi. Riman funksiyasining fizik talqini. O'zgarmas koefitsientli tenglamalar. Fazoda to'lqin tarqalishi. Kirxgof

formulasi. Tushish usuli. Puasson va Dalamber formulalari. Bir jinsli bo'lmagan to'lqin tenglamasi. Duymel prinsipi.

Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi. Birinchi chegaraviy masala. Ekstremum prinsipi. Birinchi chegaraviy masala yechimining yagonaligi va turg'unligi. Issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi uchun Koshi masalasi. Puasson formulasini keltirib chiqarish. Puasson formulasini asoslash. Bir jinsli bo'lmagan issiqlik o'tkazuvchanlik tenglamasi.

